3. Robert L.Sanks, George Tchobanoglous. Pumping Station Design. 2nd edition, Montana State University, University of California at Davis, United States, 1998.
4. Rishel James. Water Pumps and Pumping Systems. McGraw-Hill, USA, New York, 2002.
5. E. Shashi Menon, Pramila S. Menon. Working Guide to Pumps and Pumping Ststions. Calculations and Simulation. Published by Elsevier Inc, USA, 2010.
6. Mamajonov M. Nasoslar va nasos stantsiyalari. Darslik. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2013.
7. Muxammadiev M.M., Urishev B.U., Djurayev K.S. Hidroenergetik qurilmalar. Darslik. - Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2015.
8. Использование водной энергии: Учебник для вузов/ Под ред. Ю.С. Васильева. – СПб: Энергоатомиздат, 1995.
9. <http://www.nasos.ru>

УДК 621.314.236

Хошимов Урал Хошимович

*“Электр машиналари” кафедраси доценти
Тошкент Давлат Техника Университети
Ўзбекистон Республикаси, Тошкент шаҳри*

Худобердиев Шавкатжон Нурмат ўгли

*“Электр машиналари” кафедраси магистранти
Тошкент Давлат Техника Университети*

6/0,4 ва 10/0,4 КВ ИСТЕЪМОЛЧИ ТРАНСФОРМАТОР ПОДСТАНСИЯЛАРИНИНГ ЭНЕРГИЯ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ

Аннотация: Мазкур мақолада бугунги кунда кенг тарқалган трансформаторлар истеъмолчилар бевосита боғланган трансформаторлардаги исрофларни олдини олиш чоралари ва ечимлари келтирилган. Бундай трансформаторларга 10/0,4 кВА ва 6/0,4 кВА кучланишли куч трансформаторлар киради. Республикадаги трансформаторлар сонидан келиб чиқиб кенг тарқалган турлари ҳам паст кучланишни таъминлашга мулжалланган трансформаторларга 70-80% қисмини ташкил этади.

Аннотация: В этой статье представлены меры и решения по предотвращению потерь в трансформаторах, к которым напрямую подключены потребители трансформаторов, которые широко распространены сегодня. К таким трансформаторам относятся силовые трансформаторы напряжением 10/0,4 кВА и 6/0,4 кВА. Исходя из количества трансформаторов в республике, распространенные типы также составляют 70-80% трансформаторов, предназначенных для обеспечения низкого напряжения.

Annotation: This article presents measures and solutions to prevent waste in Transformers where consumers are directly connected to today's common Transformers. Such transformers include power transformers with a voltage of 10/0,4 kVA and 6/0,4 KVA. The common types, based on the

number of transformers in the Republic, also make up 70-80% of the number of Transformers designed to provide low voltage.

Калит сўзлар: Подстанция, трансформатор, капитал, жиҳозлар, резерв.

Электр энергиясини электр станциясидан истеъмолчига узатишдаги асосий муаммо электр тармоқларининг турли элементларида ва уларнинг қисимларидаги йўқотишдир, бу унинг иқтисодий таркибий қисмига салбий таъсир қилади. Шунинг учун ҳар қандай энергетика соҳаси фидойиларининг асосий вазифаси электр энергиясини ишлаб чиқаришдан якуний истеъмолга қадар минимал исрофлар билан сақлаш ва шу билан бирга маҳсулот ишлаб чиқаришда энергиядан энг самарали фойдаланишдир.

Энергия тежашни амалга ошириш чора-тадбирлар энергия интенсивлигини ва шунга мос равишда ишлаб чиқарилган маҳсулотларнинг нархини пасайтиришни таъминлайди. Электрга нисбатан энергия, энергия тежаш асосан қуйидагилар орқали амалга оширилади: самарадорликни ошириш чора-тадбирлар мажмуини амалга ошириб, электр узатиш пайтида электр энергия исрофларини камайтириш ва манбадан истеъмолчигача бўлган электр таъминоти тизимида оптимал ишлашни таъминлаш ёрдамида бўлади.

10/0,4 кВ ва 6/0,4 кВ трансформатор подстанцияларида электр исрофларни камайтириш учун ташкилий ва техник чора-тадбирлар қўлланилади.

Энг самарали ташкилий чора-тадбирларга қуйидагилар киради:

- икки трансформаторли подстанцияларда кам юкланиш режимларида трансформаторлардан бирини узиш;

- трансформаторларни мавсумий юкламалар бўлмаган вақтларда узиш;

- жорий ва капитал таъмирлашни оқилона ташкил этиш, шунингдек трансформатор подстанция электр жиҳозларига техник хизмат кўрсатиш;

- Трансформатор подстанция электр жиҳозларини оқилона диагностика қилиш ва профилактик синовдан ўтказиш;

- ўз эҳтиёжлари учун электр энергия сарфини камайтириш.

Иш шароитида трансформаторлардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш икки трансформаторли подстанциянинг иккита трансформаторидан бирининг узилиши туфайли амалга ошириш мумкин бўлади. Шу билан бирга, энг паст юк билан ишлайдиган трансформаторни линиядан ажратиш ва унинг юкмасини иккинчи трансформаторга ўтказиш керак бўлади.

Амалда, трансформаторларнинг линиядан узилишида уларнинг юкламаларидаги ўзгаришлар жадвали билан мувофиқ тарзда амалга ошириш керак бўлади. Таксимлаш тармоғидаги ажратгичларнинг минимал сонига интилиши керак. Шунинг учун трансформаторни ўчириш одатда нисбатан узоқ вақт давомида амалга оширилади: кечаси, дам олиш кунлари, ёзги давр учун танлаш мақсадга мувофиқ бўлади. Шу билан бирга, трансформаторнинг ўчирилишини амалга ошириш учун тегишли коммутация ускуналари (моторли юк калити, газ билан ишлайдиган моноблок, вакуум калити ва бошқалар) бўлиши кераклигини ёдда тутиш керак.). Масъул истеъмолчиларга электр таъминоти шарти билан, трансформаторлардан бири ўчирилган тақдирда, автоматик захира киритиш қурилмаси (АВР) тақдим этилиши керак [1].

Икки трансформаторли ТП да трансформаторлардан бирини ўчириш тавсия этиладиган максимал юк кучи (бир хил трансформатор қуввати шароитида) ифода билан белгиланади:

$$S_{\text{чег.}} = S_{\text{н}} \cdot \sqrt{\frac{2 \cdot \Delta P_{\text{с.иш}}}{\Delta P_{\text{к.т}}}} \quad (1)$$

Тенг қувватли бўлмаган куч трансформаторлари билан ишлайдиган ТП истеъмолда ишлатиладиган ҳолатлар ҳам бўлиши мумкин ($S_{\text{н}2} > S_{\text{н}1}$ да) [2]. Бу усулда улаш кўпинча 6/0,4 ва 10/0,4 кВ узатиш линияларида қўлланилади. Бундай ҳолда, максимал юкланиш кучи:

- катта қувватли трансформаторни ёқиш тавсия этилади, биз қуйидаги ифода билан бундай ҳолатни аниқлашимиз мумкин;

$$S_{\text{чег.}} = S_{\text{н}} \cdot \sqrt{\frac{\Delta P_{\text{с.иш}2} - \Delta P_{\text{с.иш}1}}{\Delta P_{\text{к.т}1} - \alpha^2 \cdot \Delta P_{\text{к.т}2}}} \quad (2)$$

- иккита трансформатор билан ишлашга ўтиш тавсия этилади;

$$S_{\text{чег.}} = (S_{\text{н1}} + S_{\text{н2}}) \cdot \sqrt{\frac{\Delta P_{\text{с.иш}}}{\Delta P_{\text{к.т2}}(1+\alpha^2) - (\Delta P_{\text{к.т2}} - \Delta P_{\text{к.т1}})}} \quad (3)$$

бу ерда α -трансформаторларнинг қувват нисбати [3]

$$\alpha = \frac{S_{\text{н1}}}{S_{\text{н2}}} \quad (4)$$

Трансформаторларнинг қувват нисбатини ҳисоблашда паралел ишлаш учун трансформаторларни ёкиш шартларини ҳисобга олиш керак. Хусусан, паралел равишда уланган иккита трансформаторнинг қуввати 3 мартадан ортиқ фарқ қилиши мумкин эмас бўлади.

Републикадаги ташкил этилаётган кўплаб агросаноат кластер ташкилотларида 10/0,4 ва 6/0,4 кВ подстанцияларида трансформаторларнинг паст юкланишда ишлаши амалиётда кўплаб учраб туради, кўпинча бу кўрсаткичлар 30-40% дан ошмайди. Буларни эътиборга олган ҳолда трансформаторлардаги электр энергиясининг аксарият йўқотишлари трансформаторларнинг салт ишлашга яқин бўлган режимларда ишлаши билан боғлиқ бўлади. Бундай ҳолларда битта трансформаторли подстанциялар учун юкланмаган трансформаторларни паст қувватли трансформаторларга алмаштириш, икки трансформаторли подстанциялар учун эса иккинчисини 6 кВ ёки 10 кВ томондан узиш билан бутун юкни битта трансформаторга ўтказиш мақсадга мувофиқдир.

Трансформаторлар паралел ишлаётган ҳолатида умумий юкломани бир трансформаторга юклаш натижасида бир трансформаторни учуриш натижасида салт ишлаш қувватлари тежашга эришилади. Трансформаторлар салт ишлаганда иккиламчи чулғамда ток ҳосил бўлмайди, бирламчи чулғамда эса номиналга нисбатан 5-8% ток ҳосил бўлади. Бу эса қуйидаги ифода билан аниқланади.

$$I_o = \sqrt{I_\mu^2 + I_a^2} \quad (5)$$

бу ерда, I_μ -метал листлардаги магнитланиш натижасида ҳосил бўладиган ток, I_a -трансформаторнинг актив қисмларидаги ҳосил бўлган токни ифодалайди.

Юқоридаги ифодаларни эътиборга олган ҳолда трансформаторлардаги исрофларни ҳисобланиб худудий электр тармоқлари истеъмол қилинган электр энергиянинг 5% миқдориди трансформатордаги исрофлар ҳисобланади. Мисол тариқасида паралел уланган ТП ларнинг бирини юклама камлигини эътиборга олган ҳолда учуриш натижасида 60 млн. сўм электр энергия учун сарфланган корхонада 3 млн. сўмни тежаб қолишимиз мумкин бўлади. Шу билан бирга энергия ресурсларидан оқилона фойдаланилган бўлади.

Республиканинг қишлоқ электр тармоқларида ўрнатилган икки трансформаторли подстанцияларнинг тузилишини таҳлил қилиш, шунингдек, қувват трансформаторларининг юкломалари тўғрисидаги маълумотларга асосланиб, трансформатор подстанцияларини автоматлаштиришнинг ягона тизимини жорий этиш орқали юқоридаги чора-тадбирларни автоматик амалга ошириш натижасида юқори самарадорликка эга бўлинади. Автоматлаштириш жараёнида жорий этилаётган ҳисоблагичлар ёрдамида олинган маълумотлар қайта ишланган ҳолда ТП нинг юкланиши таҳлил қилинади. Олинган натижалар асосида автоматлаштирилган чоралар кўриш натижасида юкломалар трансформаторларда ростланади. Бунинг натижасида республика даражасида катта энергия тежамкорлигига эришилади.

Адабиётлар рўйхати

1. Денисевич, В.Ю. Способы автоматизации потребительских трансформаторных подстанций сельскохозяйственного назначения напряжением 10/0,4кВ / В.Ю. Денисевич ; науч. рук. Д.А. Кулаковский // Энергетика в АПК : сборник тезисов докладов студенческой научной конференции, Минск, 18–29 мая 2020 г. – Минск : БГАТУ, 2020. – С. 43.
2. Китаев Е.В., Грещев И.Ф. КУРС Общей электротехники, Москва -С. 337.
3. Жуковский, А.И. Экономия электроэнергии в системах сельскохозяйственного электроснабжения. Методические указания к практическим занятиям по курсу «Экономия электроэнергии в системах сельскохозяйственного электроснабжения» для студентов специальности 74 06 05 специализации 74 06 05 04 «Электроснабжение сельского хозяйства». – Мн.: БГАТУ, 2002. – 96 с.

Berdiyarov Bakhriddin Tilovqabulovich

*Head of the "Metallurgy" department, professor, DSc,
Tashkent State Technical University,
Republic of Uzbekistan, Tashkent city*

Khojiev Shokhrukh Toshpo'latovich

*Associate professor of the "Metallurgy" department, PhD,
Tashkent State Technical University,
Republic of Uzbekistan, Tashkent city*

Ismailov Jonibek Baxadirovich

*PhD student of the "Metallurgy" department,
Tashkent State Technical University,
Republic of Uzbekistan, Tashkent city*

Alamova Gulbahor Khamroyevna

*Graduate student of the "Metallurgy" department,
Tashkent State Technical University,
Republic of Uzbekistan, Tashkent city*

THERMODYNAMIC ASPECTS OF THE PROCESS OF REDUCING ZINC FERRITE WITH ELEMENTAL SULFUR

Abstract: *The article discusses the patterns of flow and thermodynamic aspects of the process of sintering waste from a zinc plant with elemental sulfur. In a study based on the chemical composition of zinc and iron, quantitative analysis showed that zinc and iron in raw materials are in the form of a zinc ferrite compound. Based on this composition of the material, a method was proposed for the reduction of ferric oxide from zinc ferrite in the presence of technical sulfur and the transfer of iron into a magnetic form, and the conditions for the process were studied. The mechanism and thermodynamic foundations of chemical phenomena occurring in the areas of interaction between zinc ferrite and commercial sulfur have been developed.*

Annotatsiya: *Maqolada tarkibida rux saqlagan rux zavodi chiqindilarini elementar oltingugurt bilan ko'machlash jarayonining borish qonuniyatlari va termodinamik jihatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda rux va temirning kimyoviy tarkiblariga asoslanib, miqdoriy tahlil o'tkazilganda xomashyodagi rux va temir rux ferriti birikmasi ko'rinishida ekanligi aniqlangan. Shu moddiy tarkibga asoslanib, rux ferriti tarkibidan uch valentli temir oksidini texnik oltingugurt ishtirokida tiklab, temirni magnitga tortiladigan shaklga o'tkazish usuli taklif etilgan va jarayon oqib o'tishining sharoitlari o'rganib chiqilgan. Rux ferriti va texnik oltingugurtning o'zaro ta'sirlashuv mintaqalarida ro'y beradigan kimyoviy hodisalarning mexanizmi va termodinamik asoslari ishlab chiqilgan.*

Аннотация: *В статье рассмотрены закономерности протекания и термодинамические аспекты процесса спекания отходов цинкового завода с элементарной серой. В ходе исследования, основанного на химическом составе цинка и железа, количественный анализ показал, что цинк и железо в сырье находятся в форме соединения феррита цинка. На основе данного состава материала предложен способ восстановления оксида трехвалентного железа из феррита цинка в присутствии технической серы и перевода железа в магнитную форму, изучены условия протекания процесса. Разработаны механизм и термодинамические основы химических явлений, происходящих в областях взаимодействия феррита цинка и технической серы.*

Introduction. Zinc cake is obtained during the leaching of calcined zinc ores with sulfuric acid and contains about 20% zinc and additional metals such as indium, cadmium, lead and copper [1]. The reason zinc cakes are somewhat difficult to work with is that they contain ferrites and

silicates of the acid-resistant spinel type. Since the chemical and mineralogical composition of zinc production cakes consists of complex oxides, finding ways to process them is one of the topical topics of zinc metallurgy [2]. For example, the majority of zinc and iron in zinc cake is in the form of zinc ferrite ($ZnO \cdot Fe_2O_3$), which is a compound that is insoluble in mineral acids and is not attracted to magnets [3]. Therefore, finding a way to process zinc cakes to separate zinc ferrite into separate zinc and iron compounds is one of the important tasks for metallurgical scientists [4].

At “Almalyk MMC” JSC (AMMC), industrial wastes of zinc production in the form of cakes are collected in large quantities, their involvement in production allows the combine to significantly increase metal production without using the main raw material enrichment, fluxes and energy costs [5].

This research work is aimed at solving the same problems, in which trivalent iron oxide is selectively recovered by heating hydrometallurgical waste containing 15-20% zinc with sulfur in the temperature range of 500-700 °C. A method of obtaining iron-rich magnetic fraction and zinc-rich calcined concentrate was proposed by magnetic separation method [6]. Waste-free technology was developed by diverting the obtained iron enrichment to steel production, and diverting the resulting zinc-rich carbon black to hydrometallurgical processing [7].

The purpose of the research is to develop a technology for the complex processing of waste cakes from the zinc plant of “AMMC” JSC.

Materials and methods. The waste cakes of “AMMC” Zinc plant were selected as the objects of the research, and elemental sulfur was used as a local regenerating-sulphiding substance in their processing.

In order to study the chemical and material composition of zinc production cakes, technical sulfur and products obtained as a result of research, samples were taken and analyzed at the state enterprise “Central Laboratory” of the State Geological Committee. Minerals were analyzed using a mass spectrometric analyzer (ICP-MS) and high-efficiency energy dispersive X-ray fluorescence spectrometer NEX CG RIGAKU at the Institute of Chemical Technology [8].

The ThermoBase-2.15 program was used to determine the thermodynamic values of the chemical reactions occurring in the zinc cake and technical sulfur system, and Microsoft Excel programs were used to create their Ellingham graph.

Thermodynamic analyzes were conducted taking into account the dependence of isobaric-isothermal potentials (Gibbs free energy) on temperature. The Gibbs free energy change (ΔG) is generally calculated using the following formula:

$$\Delta G_{\text{reac}} = \Delta H_{\text{reac}} - \Delta S_{\text{reac}} T \quad (1)$$

Where: ΔH_{reac} - enthalpy of the corresponding chemical reaction, kJ/mol;

ΔS_{reac} - is the entropy of the corresponding chemical reaction, J/(mol•K);

T is the absolute temperature of the system, K.



The temperature dependence of the reaction equilibrium constant (K_e) was determined by the following formula:

$$K_e = e^{-\frac{\Delta G}{RT}} \quad (2)$$

Where: R - is universal gas constant, $R = 8.31696 \cdot 10^{-3}$ kJ/(grad•mol);

K_e - is the equilibrium constant of the corresponding chemical reaction.

Results and discussion. The chemical equations for the process of recovery of zinc ferrite at different concentrations of sulfur, based on empirical composition, are as follows:



The thermodynamic values of all substances involved in the reactions were calculated for standard conditions, based on the conclusions drawn from their values, a corresponding mathematical expression of the relationship between the effect of temperature increase on (3) and (4) on chemical reactions was made, and they are suitable looks like this:

$$\Delta G^T_1 = 296,924 - 0,233 \cdot T \quad (5)$$

$$\Delta G^T_2 = 264,490 - 0,667 \cdot T \quad (6)$$

Based on the calculated mathematical expressions (5) and (6), the probability of each sulfidation chemical process was determined when the temperature in the reaction system increases by 100 units. The obtained results are presented in Table 1.

Table 1

Gibbs energy values of zinc ferrite addition with technical sulfur at different temperatures

№	T, K	T, °C	ΔG^T_1 , kJ/mol	ΔG^T_2 , kJ/mol
1	398	125	204,19	-0,976
2	498	225	180,89	-67,68
3	598	325	157,59	-134,4
4	698	425	134,29	-201,1
5	798	525	110,99	-267,8
6	898	625	87,69	-334,5
7	998	725	64,39	-401,2
8	1098	825	41,09	-467,9
9	1198	925	17,79	-534,6
10	1298	1025	-5,51	-601,3
11	1398	1125	-28,81	-668
12	1498	1225	-52,11	-734,7
13	1598	1325	-75,41	-801,4
14	1698	1425	-98,71	-868,1
15	1798	1525	-122	-934,8

Table 1 presents the corresponding Gibbs energies of chemical reactions of addition of zinc ferrite with technical sulfur in the temperature range of 398 – 1798 K (i.e., 125 – 1525 °C). This can also be seen clearly in Figure 1 in the form of an Ellingham diagram.




Fig.1. Ellingham diagram of the reactions that occur during the addition of zinc ferrite with technical sulfur

Based on the mathematical expression (2) of the chemical reaction of the addition of zinc ferrite with technical sulfur in the graph depicted in Fig. 1 and the values of free energies in Table 1, the equilibrium constants of chemical reactions at the given temperatures for sulfidation reactions were determined, and these values are presented in Table 2.

Table 2

Values of equilibrium constants of zinc ferrite addition process with technical sulfur at different temperatures

№	T, K	T, °C	K ₁	K ₂
1	398	125	0,9401	1,0003
2	498	225	0,9572	1,0165
3	598	325	0,9688	1,0274
4	698	425	0,9771	1,0353
5	798	525	0,9834	1,0412
6	898	625	0,9883	1,0458
7	998	725	0,9923	1,0496
8	1098	825	0,9955	1,0526
9	1198	925	0,9982	1,0552
10	1298	1025	1,0005	1,0573
11	1398	1125	1,0025	1,0592
12	1498	1225	1,0042	1,0608
13	1598	1325	1,0057	1,0622
14	1698	1425	1,0070	1,0635
15	1798	1525	1,0082	1,0646




Fig.2. Variation of the equilibrium constant in the process of adding zinc ferrite with technical sulfur depending on the temperature

From the values in Table 2 and the histograms in Figure 2, it can be understood that when the temperature reaches 973 K (700 °C), chemical reaction (4), i.e., in the formation of metal sulfides during the addition of zinc ferrite with technical sulfur equilibrium constant reaches the optimal value ($K_e=1.0354$).

The result of the thermodynamic and kinetic analysis of the process of addition of zinc ferrite with technical sulfur showed that the probability of the reaction and the equilibrium constant increase as the temperature increases. When the temperature reaches 700 °C, the speed of the reaction has the highest value.

Conclusion. According to the results of the thermodynamic analysis, it was found that the limiting stage among the chemical reactions occurring in the system of zinc ferrite and technical

sulfur is the phase of diffusion of zinc ferrite and technical sulfur molecules into each other. Accordingly, the temperature required for complete reaction of zinc ferrite with technical sulfur was 973 K (700 °C). It was proved by studying the kinetics of the process that the equilibrium constants of all chemical reactions have high values at this temperature.

The importance of studying this process is that the iron (II)-oxide formed as a result of the reaction can be magnetically separated, and the magnetic fraction can be used as a raw material for steel production. Zinc oxides and sulfides in the non-magnetized fraction formed as a result of the reaction are sent to the hydrometallurgical selective smelting process. In addition, due to the extraction of iron from non-magnetic materials, the amount of zinc and copper increases and reaches a level that is effective in production. Since these metals are also oxidized, it is possible to separate them using the method of selective dissolution in sulfuric acid. This makes it possible to introduce waste-free technology and increase the level of environmental protection.

References:

1. Svens K., Kerstiens B., Runkel M. Recent experiences with modern zinc processing technology // “Erzmetall”. – 2003. – №2. – P. 94 – 103.
2. Matkarimov S.T., Yusupkhodjaev A.A., Khojiev Sh.T., Berdiyarov B.T., Matkarimov Z.T. Technology for the Complex Recycling Slags of Copper Production // Journal of Critical Reviews, Volume 7, Issue 5, April 2020. P. 214 – 220.
3. Berdiyarov B.T., Hojiyev Sh.T., Mirsaotov S.U. Rangli metallurgiya chiqindilarini qayta ishlashning dolzarbligi // “Zamonaviy kimyoning dolzarb muammolari” mavzusidagi Respublika miqyosidagi xorijiy olimlar ishtirokidagi onlayn ilmiy-amaliy anjumani to‘plami, Buxoro, 4-5 dekabr, 2020. 61 – 62 b.
4. Khojiev Shokhrukh, Berdiyarov Bakhriddin, Mirsaotov Suxrob. Reduction of Copper and Iron Oxide Mixture with Local Reducing Gases // Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent, 2020, Vol.10, Iss.4. P. 7-17.
5. Khojiev Sh.T., Rakhmataliyev Sh.A., Tulaganov M.I., Rakhmonaliyev M.M. Modern technologies of zinc production // Моя профессиональная карьера, 2022, 35(8). С. 266-275.
6. Khojiev Sh.T., Saidova M.S., Mirzajonova S.B., Ibrokhimov H.X., Ismatov Sh.O’. Development of Technology for Processing Zinc Cakes Based on the Use of Petroleum Coke // International Journal of Academic Engineering Research, 6(6), 2022. P. 23-28.
7. Khojiev Sh.T., Saidova M.S., O‘rinboyev M.J. Modern Methods of Coating Zinc and Chromate Shells on the Surface of Structural Materials // International Journal of Engineering and Information System, 6(6), 2022. P. 1-6.
8. Khasanov A.S., Ochildiyev Q.T., Berdiyarov B.T., Khojiev Sh.T., Matkarimov S.T. Study thermodynamics of the magnetite sulfidation in copper smelting processes // *Technical science and innovation*, Vol. 2022, Iss.2. P. 19-27.

Berdiyarov Bahriddin Tilovqabulovich

“Metallurgiya” kafedrasi mudiri, v.b. professor, t.f.d.,
Toshkent davlat texnika universiteti,
O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri

Hojiyev Shohruh Toshpo‘latovich

“Metallurgiya” kafedrasi v.b. dotsenti, PhD,
Toshkent davlat texnika universiteti,
O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri

Ismailov Jonibek Baxadirovich

“Metallurgiya” kafedrasi doktoranti,
Toshkent davlat texnika universiteti,
O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri

Alamova Gulbahor Xamroyevna

“Metallurgiya” kafedrasi magistranti,
Toshkent davlat texnika universiteti,
O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri

ЧИҚИНДИЛАРДАН БИОГАЗ ОЛИШ ЖАРАЁНИ ИНГИБИТОРЛАРИ

Annotatsiya: Maqolada tarkibida rux saqlagan rux zavodi chiqindilarini texnik oltingugurt bilan ko‘machlash jarayonining borish qonuniyatlari ko‘rib chiqilgan. Rux keki kuydirilgan rux boyitmalarini sulfat kislota bilan yuvish bosqichida olinadi va taxminan 20% atrofida rux hamda qo‘shimcha ravishda indiy, kadmiy, qo‘rg‘oshin va mis metallarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotda rux va temirning kimyoviy tarkiblariga asoslanib, miqdoriy tahlil o‘tkazilganda xomashyodagi rux va temir rux ferriti birikmasi ko‘rinishida ekanligi aniqlangan. Shu moddiy tarkibga asoslanib, rux ferriti tarkibidan uch valentli temir oksidini texnik oltingugurt ishtirokida tiklab, temirni magnitga tortiladigan shaklga o‘tkazish usuli taklif etilgan va jarayon oqib o‘tishining sharoitlari o‘rganib chiqilgan. Rux ferriti va texnik oltingugurtning o‘zaro ta’sirlashuv mintaqalarida ro‘y beradigan kimyoviy hodisalarning mexanizmi ishlab chiqilgan.

Abstract: The article discusses the regularities of the process of sintering of zinc plant waste with technical sulfur. Zinc cake is obtained by sulfuric acid leaching of roasted zinc concentrates and contains approximately 20% zinc and additional metals such as indium, cadmium, lead and copper. In a study based on the chemical composition of zinc and iron, quantitative analysis showed that zinc and iron in raw materials are in the form of a zinc ferrite compound. Based on this composition of the material, a method was proposed for the reduction of ferric oxide from zinc ferrite in the presence of technical sulfur and the transfer of iron into a magnetic form, and the conditions for the process were studied. The mechanism of chemical phenomena occurring in the areas of interaction between zinc ferrite and technical sulfur has been developed.

Аннотация: В статье рассмотрены закономерности процесса спекания отходов цинкового завода с технической серой. Цинковый кек получается при сернокислотном выщелачивании обожженных цинковых концентратов и содержит примерно 20% цинка и дополнительные металлы, такие как индий, кадмий, свинец и медь. В ходе исследования, основанного на химическом составе цинка и железа, количественный анализ показал, что цинк и железо в сырье находятся в форме соединения феррита цинка. На основе данного состава материала предложен способ восстановления оксида трехвалентного железа из феррита цинка в присутствии технической серы и перевода железа в магнитную форму, изучены условия протекания процесса. Разработан механизм химических явлений, происходящих в областях взаимодействия феррита цинка и технической серы.

Kirish. Bugungi kunda dunyoda rux ishlab chiqarish sohasi kuchli o‘shish tendensiyasiga egadir. Shu bilan birga, ruda tarkibidagi rux miqdorining 1-3% gacha pasayishi va o‘tgan asrning yetmishinchi yillariga qadar 3,5-5% gacha bo‘lganligi sababli atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha talablarning kuchayishi, ishlab chiqarishning texnogen chiqindilari xomashyolaridan foydalanishning murakkabligini oshirishga, undan foydalanishga alohida e‘tibor qaratilmoqda, ishlab chiqarishning texnogen chiqindilaridan foydalangan holda resurs va energiya tejaydigan texnologiyalar joriy etilmoqda. Shuning uchun rux ishlab chiqarish keklarini qayta ishlashga va kambag‘allashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda [1-4].

“Olmaliq KMK” AJda (OKMK) rux ishlab chiqarishning keklar ko‘rinishidagi sanoat chiqindilari katta miqdorda yig‘ilgan, ularni ishlab chiqarishga jalb etish kombinatga asosiy xomashyo boyitmalardan, flyuslardan va energiya xarajatlaridan foydalanmasdan metall ishlab chiqarishni sezilarli darajada oshirishga imkon beradi [4-5].

Ushbu tadqiqot ishi ham ayni shu muammolarni yechishga qaratilgan bo‘lib, bunda tarkibida 15-20 % rux saqlagan gidrometallurgik chiqindilarni oltingugurt bilan 500 – 700 °C haroratlar intervalida ko‘machlash orqali uch valentli temir oksidini selektiv tiklab, so‘ng hosil bo‘lgan ko‘machni magnitli ajratish usuli bilan ajratilib temirga boy magnitli fraksiya hamda ruxga boy kuydirilgan konsentrat olish usuli taklif etilgan [6]. Olingan temirli boyitmani po‘lat ishlab chiqarish yo‘naltirish bilan, hosil bo‘lgan ruxga boy kuyindini gidrometallurgik qayta ishlash jarayoniga yo‘naltirish orqali chiqindisiz texnologiya ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning maqsadi “OKMK” AJ rux zavodidan hosil bo‘ladigan chiqindi-keklarlarni kompleks qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat [7].

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- rux ishlab chiqarishda hosil bo‘ladigan chiqindi-kekdagi ruxni ajratib olishning texnologik jarayonlarini o‘rganish;
- tarkibida rux saqlagan chiqindi-keklarni qayta ishlashning samarali texnologiyasini ishlab chiqish maqsadida mahalliy tiklovchi moddalar bilan kekning o‘zaro ta‘sirini o‘rganish;
- rux keklarini tiklashda sarflanadigan mahalliy tiklovchi moddaning optimal miqdorini aniqlash.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati rux keki tarkibidagi temirni selektiv tiklash usuli orqali magnitlanadigan ko‘rinishga o‘tkazish, buning uchun kekni elementar oltingugurt bilan ko‘machlashda oltingugurtning optimal sarfini topish, ishlab chiqilgan texnologiya metallurgik ishlab chiqarishidagi texnogen chiqindilarni qayta ishlashga jalb qilish, ulardan kompleks foydalanish darajasini oshirish va dastlabki ko‘machlashdan so‘ng qayta magnitli boyitishdan keyin qoladigan ruxga boy kuyindidan iborat mahsulotni tanlab eritib, uning tarkibidagi qimmatbaho metallarni ham qo‘shimcha ravishda ajratib olishga yo‘naltirish bilan izohlanadi [8].

Tadqiqot obyektlari va usullari. Tadqiqot obyektlari sifatida “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ Rux zavodining gidrometallurgik tanlab eritish jarayonidan chiqqan chiqindi-keklar tanlab olindi. OKMK AJ rux zavodidan chiqqan chiqindi-kekning kimyoviy tarkibi quyidagi 1-jadvalda taqdim etilgan.

1-jadval

Tajriba uchun tanlangan “OKMK” AJ rux zavodi keklarining kimyoviy va moddiy tarkibi,

%

Birikmalar	Miqdori, %	Birikmalar	Miqdori, %
Zn	19,4	Cu	1,57
Pb	5,8	S	7,7
Cd	0,20	Fe	23,2
MgO	1,0	CaO	2,7
Al ₂ O ₃	2,2		

1-jadvalda keltirilgan qiymatlar shuni ko'rsatadiki, rux zavodi kekining kimyoviy tarkibida temir va ruxning miqdorlari sezilarli darajada ko'p. Kek tarkibidagi ruxning asosiy qismi ferrit ko'rinishida bo'lib, bu birikma oksidlar sinfining shpinellar turiga kiradi va kislota hamda ishqorlarda erimasligi bilan boshqa turdagi oksidlardan farqlanadi.

Tadqiqotni amalga oshirishda tiklovchi va sulfidlovchi modda sifatida texnik oltingugurtdan foydalanildi.

Texnik oltingugurt va texnik modifikatsiyalangan oltingugurt standart talablariga muvofiq belgilangan tartibda tasdiqlangan texnologik reglamentlarga muvofiq ishlab chiqariladi.


Texnik oltingugurt, ishlab chiqarish usuliga qarab, suyuq, bo'lakli, donador va maydalangan holda ishlab chiqariladi. Tadqiqotni o'tkazish uchun aynan maydalangan oltingugurt talab etildi.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi. Olmaliq kon-metallurgiya kombinati (OKMK) Rux zavodining gidrometallurgiya sexidan olingan chiqindi-kek tarkibidagi ruxni oksidli va ferritli minerallar ko'rinishida ekanligi aniqlangandan so'ng bu chiqindini dastlab laboratoriya sharoitida tegirmonda yanchildi. Tadqiqot ishi uchun dastlab 10 g dan jami 8 ta rux keki namunasi elektron tarozida tortib olindi. So'ng texnik oltingugurtni chinni hovonchada quruq holda ezib yanchildi va olingan xomashyolar dastlabki granulometrik tahlildan o'tkazildi. Granulometrik tahlil natijalari 1-rasmda ko'rsatilgan.



1-rasm. Rux keki (o'ngda) va maydalangan texnik oltingugurt (chapda) namunasining granulometrik tahlili

Granulometrik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, yanchish natijasida olingan rux keki va texnik oltingugurt namunalarida zarrachalarning o'lchami 0,1 mm dan kichik qiymatlarni tashkil etdi. So'ng rux kekining magnitlanish xususiyatlari tahlil qilinganda kekdagi asosiy temir saqlagan komponent rux ferriti ($ZnFe_2O_4$) birikmasining magnitga tortiluvchanligi juda past ekanligi uchun u amalda magnitli usulda deyarli ajralmasligi aniqlandi. Flotatsiya jarayonida ham suvda ho'llanish qobiliyati (gidrofill) yuqori bo'lganligi sababli flotoreagentlarga ham bog'lana olmaydi. Shunga ko'ra, tadqiqotni bajarishdan oldin shunday vazifa qo'yildiki, bunda rux ferriti ($ZnFe_2O_4$) ko'rinishidagi minerallardan temir va rux oksidlarini alohida birikmalarga o'tkazish talab etildi. Buning natijasida temir magnitlanmaydigan ferrit ko'rinishidan magnitlanadigan oksid ko'rinishiga o'tadi. Bu ishni bajarish maqsadida Toshkent davlat texnika universiteti "Metallurgiya" kafedrasining ilmiy laboratoriyasida rux kekiga maydalangan texnik oltingugurt ta'sir ettirib, uch valentli temir oksidini ikki valentli ko'rinishga o'tkazish amaliyoti bajarildi. Bunda 10 g rux keki namunasiga har xil miqdorda maydalangan texnik oltingugurt namunalari aralastirilib shixta tayyorlandi (2-rasm).




2-rasm. Rux keki va texnik oltingugurt na'munalarini qo'shib tayyorlangan shixta na'munasi

Hosil bo'lgan shixta na'munasi o'tga chidamli materiallardan yasalgan idishga solinib, ЧОЖ-2,5x2,5x2,5/3И rusumli Mufel pechida 500 - 700 °C haroratlarda 1 soat davomida qizdirildi (3-rasm).



3-rasm. Rux keki va texnik oltingugurtdan iborat aralashmani Mufel pechida qizdirish jarayoni

3-rasmda tasvirlangan jarayonda rux keki va texnik oltingugurtdan iborat shixtani Mufel pechida 500 – 700 °C da qizdirish jarayonida quyidagicha kimyoviy reaksiyalar oqib o'tadi:



Yuqori haroratli qizdirishdan so'ng olingan na'munalar magnitli separatsiya jarayonidan o'tkazildi. (1) va (2) kimyoviy reaksiyalarning oqib o'tishi evaziga ajralib chiqqan temir (II)-oksidi (FeO) ham magnitli separatsiya usulida ajratib olindi (3-rasm).



3-rasm. Rux kekini maydalangan texnik oltingugurt bilan ko‘machlangandan so‘ng hosil bo‘lgan mahsulotni magnitli fraksiyasi

Rux kekini turli haroratlar va vaqt birliklarida texnik oltingugurt bilan ko‘machlash maqsadida jarayonga oltingugurtning sarfi ustida bir nechta tadqiqotlar olib borildi. Bunga ko‘ra, oltingugurtning sarfi dastlabki rux keki massasiga nisbatan 5 – 40 % qiymatlarni tashkil etdi. Harorat intervali esa 500 – 700 °C oralig‘idagi qiymatlarni tashkil etdi. Tiklanish reaksiyasining oqib o‘tishini vaqt birligida va konsentratsiyalar farqi bo‘yicha ham tadqiqotlar o‘tkazildi. Bunda dastlabki 4 ta shixta na‘munasini 30 daqiqa davomida qizdirildi. keyingi 4 ta na‘munani esa 60 daqiqa davomida Mufel pechida har xil haroratlar intervalida qizdirildi. Olib borilgan tadqiqotda har bir tajriba na‘munasining parametrlari 2-jadvalda taqdim etilgan.

2-jadval

Rux kekini qayta ishlashda texnik oltingugurt sarfining tajriba-sinovi qiymatlari

№	Rux keki massasi, g	Texnik oltingugurtning sarfi, %	Harorat, °C	Vaqt, min
1	10	5	500	30
2	10	10	525	30
3	10	15	550	30
4	10	20	575	30
5	10	25	600	60
6	10	30	625	60
7	10	35	650	60
8	10	40	700	60

2-jadvalda keltirilgan qiymatlarda 8 ta tajriba-sinovi amalga oshirildi va rux keki bilan texnik oltingugurtning o‘zaro ta’siri o‘rganildi. Olingan natijalar 3-jadvalda taqdim etilgan.


3-jadvalda taqdim etilgan tajriba-sinov natijalarini aks ettirilgan magnitli fraksiyaning ajralish darajasi tadqiqot uchun olingan dastlabki kekning massasiga nisbatan quyidagi formula orqali hisoblandi:

$$\eta = \frac{m_{mag.frak}}{m_{kek}} \cdot 100 \quad (3)$$

Ko‘machlash jarayonida tiklovchi miqdorining magnitli fraksiyani ajralish darajasiga bog‘liqligi grafik ko‘rinishida 4-rasmda tasvirlangan.

Qizdirishdan so'ng olingan mahsulotdagi temir oksidning ajralish darajasi

№	Texnik oltingugurtning sarfi, %	Harorat, °C	Kuydirishdan so'ng ajralgan magnitli fraksiya miqdori, g	Magnitli fraksiyaning ajralish darajasi, %
1	5	500	0,68	5,0
2	10	525	1,78	13,08
3	15	550	2,11	15,51
4	20	575	2,56	18,82
5	25	600	3,07	22,57
6	30	625	3,84	28,23
7	35	650	4,95	36,39
8	40	700	5,87	43,16
9	50	700	4,73	34,77
10	60	700	4,05	29,77
11	70	700	3,98	29,26



4-rasm. Ko'machlash jarayonida texnik oltingugurt sarfining magnitli fraksiyani ajralish darajasiga bog'liqligi

4-rasmda tasvirlangan grafikdan shuni ko'rish mumkinki, dastlab texnik oltingugurtning sarfi ortib borishi bilan kimyoviy jarayon tezlashib, reaksiya natijasida nisbatan ko'proq magnitli fraksiya ajralib chiqdi. Texnik oltingugurtning sarfi dastlabki rux keki massasiga nisbatan 40 % ni tashkil etganda magnitli fraksiyaning ajralish darajasi umumiy holda maksimal qiymatni – 43,16 % ni tashkil etgani aniqlandi. Texnik oltingugurtning sarfini yana oshirilishi kimyoviy reaksiyaga ijobiy ta'sir etdi. Lekin magnitli fraksiyaning ajralish darajasiga esa salbiy ta'sir ko'rsatgani aniqlandi. Bundan kelib chiqadiki, kek tarkibidagi rux ferriti oltingugurt bilan tiklab, temirning quyi oksidini (FeO) olish jarayonida texnik oltingugurtning optimal sarfi dastlabki rux keki massasiga nisbatan 40 % ni tashkil etdi. Bunda jarayon optimal tarzda oqib o'tishi uchun 700 °C harorat talab etildi.

Xulosa. Texnik oltingugurtning sarfi ortib borishi (2) kimyoviy reaksiyaning tezlashishiga olib keladi. Chunki (1) reaksiya bo'yicha hosil bo'lgan rux va temir oksidlari oltingugurtga moyilligi tufayli yuqori konsentratsiyaga ega bo'lgan oltingugurtli mintaqalarda sulfidlanish jarayoni sodir bo'ladi. Hosil bo'lgan sulfidlar aralashmasining magnitlanish qobiliyati sustligi tufayli oltingugurtning sarfi ortib borishi bilan magnitli fraksiyaning ajralish darajasi kamayib boradi. Rux kekini sulfidlash reaksiyasi mexanizmining dastlabki bosqichlarida, ya'ni, oltingugurtning konsentratsiyasi kam bo'lgan mintaqalarda (1) kimyoviy reaksiya bo'yicha rux oksidi (ZnO) va temir (II)-oksidlari (FeO) hosil bo'ladi. Rux keki tarkibidagi rux ferritini selektiv tiklash jarayonini amalga oshirish uchun (1) kimyoviy reaksiyaning o'zi kifoya qiladi. Chunki tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad rux kekini ko'machlash orqali rux va temir oksidlarini magnitli separatsiya yordamida bir-biridan ajratish va bunda tikovchi-sulfidlovchi modda – oltingugurtning sarfini kamaytirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Svens K., Kerstiens B., Runkel M. Recent experiences with modern zinc processing technology // "Erzmetall". – 2003. – №2. – P. 94 – 103.
2. Matkarimov S.T., Yusupkhodjaev A.A., Khojiev Sh.T., Berdiyarov B.T., Matkarimov Z.T. Technology for the Complex Recycling Slags of Copper Production // Journal of Critical Reviews, Volume 7, Issue 5, April 2020. P. 214 – 220.
3. Berdiyarov B.T., Hojiyev Sh.T., Mirsaotov S.U. Rangli metallurgiya chiqindilarini qayta ishlashning dolzarbligi // "Zamonaviy kimyoning dolzarb muammolari" mavzusidagi Respublika miqyosidagi xorijiy olimlar ishtirokidagi onlayn ilmiy-amaliy anjumani to'plami, Buxoro, 4-5 dekabr, 2020. 61 – 62 b.
4. Khojiev Shokhrukh, Berdiyarov Bakhriddin, Mirsaotov Suxrob. Reduction of Copper and Iron Oxide Mixture with Local Reducing Gases // Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent, 2020, Vol.10, Iss.4. P. 7-17.
5. Khojiev Sh.T., Rakhmataliyev Sh.A., Tulaganov M.I., Rakhmonaliyev M.M. Modern technologies of zinc production // Моя профессиональная карьера, 2022, 35(8). С. 266-275.
6. Khojiev Sh.T., Saidova M.S., Mirzajonova S.B., Ibrokhimov H.X., Ismatov Sh.O'. Development of Technology for Processing Zinc Cakes Based on the Use of Petroleum Coke // International Journal of Academic Engineering Research, 6(6), 2022. P. 23-28.
7. Khojiev Sh.T., Saidova M.S., O'rinboyev M.J. Modern Methods of Coating Zinc and Chromate Shells on the Surface of Structural Materials // International Journal of Engineering and Information System, 6(6), 2022. P. 1-6.
8. Khasanov A.S., Ochildiyev Q.T., Berdiyarov B.T., Khojiev Sh.T., Matkarimov S.T. Study thermodynamics of the magnetite sulfidation in copper smelting processes // *Technical science and innovation*, Vol. 2022, Iss.2. P. 19-27.

Миржалилов Шавкат Зиёвудинович

*“Альтернатив энергия манбалари” кафедраси магистранти
Тошкент давлат техника университети.
Ўзбекистон Республикаси. Тошкент шаҳри*

Мажитов Жўрабек Алтибаевич

*Бухоро мухандислик технологиялар институти
“Физика” кафедраси ассистенти
Ўзбекистон Республикаси Бухоро шаҳри*

Қурбанов Юнус Муртаза ўғли

*“Альтернатив энергия манбалари” кафедраси ассистенти
Тошкент давлат техника университети.
Ўзбекистон Республикаси. Тошкент шаҳри*

Муслимова Мохира Мамуровна

*“Альтернатив энергия манбалари” кафедраси ассистенти
Тошкент давлат техника университети.
Ўзбекистон Республикаси. Тошкент шаҳри*

ЧИҚИНДИЛАРДАН БИОГАЗ ОЛИШ ЖАРАЁНИ ИНГИБИТОРЛАРИ

Annotatsiya: *Ҳозирги кунда экологик муҳитни яхшилаш мақсадида биологик чиқиндилардан биокимёвий ёндашувлардан фойдаланиб анаэроб шароитда биогаз ажрალიши вақтида турли хил моддаларнинг метан ҳосил қилувчи бактерияларга таъсири келтирилган.*

Аннотация: *В целях улучшения экологической обстановки в настоящее время представлено воздействие различных веществ на метанообразующие бактерии во время выделения биогаза в анаэробных условиях с использованием биохимических подходов из биологических отходов.*

Abstract: *In order to improve the environmental environment at present the effect of various substances on methane-forming bacteria at the time of biogas separation in anaerobic conditions using biochemical approaches from biological waste is presented.*

Кириш. Охирги йилларда органик қолдиқлардан табиий газ ишлаб чиқариш муаммоларини Ўзбекистон шароитида ҳал қилиш мақсадида, фермер хўжаликлари парранда ва қорамол гўнгида оқилона фойдаланиш чораларини ҳал қилиш мақсадида, Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарорлари қабул қилиниб, кенг кўламда иш олиб бориш учун йўл очиб берилди. Ушбу қарор билан келажакда маҳаллий чиқинди ресурсларидан тўлиқ фойдаланиш таъкидланган [1].

Охирги йилларда аҳоли сонининг ортиб бориши, электр энергия ва табиий ёқилғи маҳсулотларига бўлган эҳтиёжга сабаб бўлмоқда. Шу нуқтаи назардан, таҳлиллар шуни кўрсатадики ривожланган мамлакатларда ҳам ушбу муаммо янада ортиб борганлиги сабабли, чет эл олимлари томонидан биоэнергиядан оқилона фойдаланиш бўйича кенг қамровли тадқиқот ишларини олиб бориш йўлга қўйилмоқда.

Ушбу мақолада юқорида баён қилинган масалаларни муҳокама этилган ҳамда биогаз ишлаб чиқишда хомашё сифатида қўлланиладиган биомасса чиқиндиларини назорат қилишда технологик параметрларини таҳлил этилди.

Муаммонинг ҳозирги ҳолатининг таҳлили. Микроорганизмлар — асосан, бир хужайрали микроскопик тирик мавжудотларнинг катта гуруҳи. Микроорганизмларга бактериялар, актиномецитлар, ачитқилар, моғор замбуруғлари, микроскопик сувўтлар ва бошқалар киради. Микроорганизмлар прокариотлар (хужайрасида ядро ва хромосома

аппарати йўқ организмлар) эукариотлар (хужайрасида цитоплазма ва мембрана билан ажратилган ядроси бор бир ёки кўп хужайрали организмлар)га бўлинади.

Микроорганизмлар табиат (тупроқ, сув, ўсимлик қолдиқлари ва бошқалар) да кенг тарқалган. 1г тупроқ ёки сув ости ғрунгида 2—3 млрд. гача микроорганизмлар бўлади. Микроорганизмларнинг ўлчами турлича бўлиб, улар микроннинг ўндан бир қисмидан бир неча микронгача. Микроорганизмларнинг физиологикморфологик хусусиятлари ва ҳаёт цикли ҳар хил. Кўпгина микроорганизмлар бир хужайрали, баъзилари, мох, моғор замбуруглари кўп хужайрали иплар (мицелий)га эга. Микроорганизмлар, одатда, хлорофиллсиз, аммо баъзиларида бактериохлорофилл ва хлорофилл бор.

Чиқиндиларидан биогаз тайёрлашда биомасса таркибини назорат қилишга доир тадқиқотлар олиб борилган, уларнинг деярли кўпчилиги маъиший чиқиндиларига қаратилган [3]. Бироқ ўтказилган адабиётлар таҳлили шуни кўрсатдики [4], турли кишлоқ хўжалиги маҳсулотлар қолдиқлари, биологик чиқиндилар: ҳайвон ва парранда гумусидан биогаз олишда, қўлланиладиган биомасса таркибини назорат қилишнинг тезкор ва энергия тежамкор воситаларининг камлиги сабабли биомасса таркибини назорат қилишнинг янги илмий-техник ва конструкторлик ечимларига, шунингдек қурилма сифатида амалга оширилишининг мавжуд имкониятларидан фойдаланишда етарли даражада эътибор қаратилмаган.

Ушбу масалаларни ҳал етиш зарурияти, тадқиқот ишининг йўналишини белгилашда ва шакллантирилган мақсадларини амалга оширишга ҳамда бу муаммо ўрганилиб келинаётганлиги сабабли кўшимча назарий ва экспериментал тадқиқотлар олиб бориш талаб қилинади [5].

Муаммони қўйилиши. Биомасса биофаол моддаларнинг ўзига хос хусусиятлари, уларнинг муҳим энергетик салоҳияти ва нисбатан оддий янгиланиши туфайли ер юзида қайта тикланадиган энергиянинг энг истиқболли манбаларидан бири ҳисобланади. Демак, бу турдаги чиқинди биомассасидан қайта тикланадиган энергиясидан фойдаланиш ҳамда биомасса таркибини назорат қилишнинг усулларини танлаш ва улар негизида янги илмий-техник ва конструкторлик ечимларига жавоб берадаган тезкор ўлчов воситаларини ишлаб чиқиш долзарб масала ҳисобланади. Тадқиқотларнинг асосий мақсади кишлоқ хўжалиги маҳсулотлари чиқиндиларидан биогаз тайёрлашда, биомасса ва биогаз таркибини назорат қилишда ўлчов усулларини танлаш ва уларнинг асосида ўлчов асбобларини яратишдан иборат [6,7]

Тадқиқот услуби, натижалар. Ўлчов воситаларини яратишда, юқори частотали ўлчаш усуллари асосида тадқиқотларни олиб бориш, ўлчанаётган биомасса диэлектрик ўтказувчанлиги тадқиқот кузатувларига мос келишини инобатга олиб, ҳамда олдинги ўтказган тадқиқотларимиз натижаларига ўхшашлиги туфайли, масофадан ўлчаш ҳисобига биологик чиқиндиларни анаэробик қайта ишлаш технологияси қўллаган ҳолда амалга ошириш мумкин бўлади [8].

Олиб борилган илмий адабиётлар таҳлили шуни кўрсатяптики, барча тадқиқотчиларнинг асосий муаммоси бирламчи ўзгартиргичларни танлаш ва уларни ўлчов тизимига мослашувини таъминлаш мураккаблигидан иборат бўлмоқда.

